

SURXONLIK ZABARDAST IKKI NOSIR

Ubaydullayeva Jamila Xurramovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi,

Ko'charova Dildora Karim qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Maqolada surxonlik yetuk nasr ustalarri Mengziyo Safarov, Tog'ay Murod, Erkin A'zamlarning adabiy muhitga kirib kelishlari va o'zbek adabiyotiga olib kirgan yangi epkinlari haqida so'z yuritildi. Ijodiy mehnat yo'lida ijodkorlarning chekkan zahmatlari va ijodiy yutuqlari e'tirof etildi.

Kalit so'zlar: surxon adabiy muhiti, tabiat tasviri, o'zbekona umumlashma obraz, milliy urf-odatlar.

O'tgan asarning yetmishinchi yillari o'rtalarida adabiyotimizga o'z uslubi, faqat o'zigagina xos ovozi bilan shunday bir ijodkor kirib keldiki, u dastlabki asarlaridanoq o'quvchilar qalbidan joy ola boshladi. "Sharq yulduzi" jurnalining 1965-yil may sonida bosilgan "Turnalar uchadi" qissasi o'zbek adabiyotiga xassos bir ijodkor kirib kelganligini namoyish qildi.

Bu ijodkor Mengziyo Safarov edi. Jurnalning o'sha qissa bosilgan soni birdaniga qo'lma-qo'l bo'lib ketdi. U adabiyotshunoslar, adabiyot ixlosmandlari suhbatlarining bosh mavzuiga aylandi. O'quvchilar uning boshqa asarlarini ham intizor bo'lib kuta boshlashdi. "Mengziyo Safarov kelgach, Surxon vohasida adabiy muhit yanada jonlanib ketdi"¹.

Mengziyo Safarov 1938-yilda Surxondaryo viloyatining Denov tumaniga qarashli Xayrobod qishlog'ida tug'ilgan. Ilk qissasi 1965-yilda e'lon qilingan bo'lsa, ilk kitobi "Ona yer qo'shig'i" nomi ostida 1969-yilda nashrdan chiqqan, shundan so'ng adibning "Turnalar uchadi" (1972), "Olis qirlar ortida" (1977), "Povest va hikoyalar" (1978), "Ona tuproq qo'shig'i" (1989), "Tabiat ehromi; Umr chorrahalarida" (1985, Z. Egamberdiyev bilan hamkorlikda) kabi kitoblari nashr etilgan. Umrining so'nggi yillarida "Amudaryo" nomli nasriy asar ustida ishlagan (asar tugallanmagan).

Ushbu asarlari bilan adib nafaqat vohada balki mamlakat bo'yicha o'z o'quvchilariga ega bo'ldi desak zarracha mubolag'a bo'lmaydi. Adib ijodi yanada gullab yashnashi, duvruq qozonishi mumkin edi, agarda bevaqt o'lim uni hayotdan olib ketmaganida. Ulkan mahoratga ega ijodkor, haqiqiy insoniy tuyg'ular egasi Mengziyo Safarov 1994-yilda vafot etdi. "Olis qirlar ortida", "Payg'ambar oroli", "Ayrishox", qissalari, "Bobotog" esselari, "Kiyiklarning qaytishi", "Dolg'ali daryo". "Qum qo'rg'onlar", "Ota huzurida" kabi bir qancha hikoyalari uning muxlislari tomonidan hamon sevib o'qib kelinmoqda.

¹ Maqsadqulov X. Termiz oqshomi gazetasi 2008-yil 10-son.

Mengziyo Safarov ijodining asosiy qismida ona tabiatni, tabiat bo'lganda ham Surxon vohasi tabiatini, tabiatni sevadigan insonlarni tasvirlagan Adib ijodi yuzasidan hozirgacha monografik planda katta tadqiqotlar qilinganicha yo'q. Faqatgina ayrim maqolalar, xotiralar bor xolos. Mengziyo Safarov ijodini, asarlarining badiiy xususiyatlarini o'rganish adabiyotshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri desak, xato bo'lmaydi.

Surxondaryodan chiqqan adiblar orasida bir ijodkor borki, uningsiz o'zbek adabiyotining bir o'rini bo'shab qoladigandek tuyuladi. O'ziga xos uslubi, hayotiy asarlari, samimiy va sodda, dardchil qahramonlari bilan uning ijodi tahsinga sazovor bo'lib kelgan. O'z asarlari bilan tom ma'noda "o'zbek xalqiga haykal qo'ygan" Tog'ay Murod ham o'zining betakror ijodi bilan o'zbek adabiyoti, o'zbek nasri uchun katta figurlardan biri hisoblanadi. Uning asl ismi Tog'aymurod Mengnorov bo'lib, Tog'ay Murod uning taxallusidir. Tog'ay Murod 1948-yilda Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi Xo'ja Soat qishlog'ida (Hozirgi Oltinsoy tumani hududi) tavallud topgan. 1967-1971 yillarda Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida o'qigan. Adabiyotga bo'lgan xavasi sababli, adabiy bilimini va mahoratini oshirish maqsadida 1985-1987-yillarda Moskvadagi Adabiyot institutida tahsil oladi. Shundan so'ng turfa xil joylarda, xususan, Respublika radiosida, "O'zbekiston fizkulturachisi" gazetasi, "Fan va turmush" jurnalida ko'p yillar faoliyat olib borgan.

Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" nomdagi ilk qissasi 1976-yilda "Sharq yulduzi" jurnalida chop etilgach, kitobxonlar og'ziga tushdi. Shundan so'ng birin-ketin "Ot kishnagan oqshom", "Oydinda yurgan odamlar", "Momoyer qo'shig'i" kabi o'zbek milliy qissachiligining yangi namunalari dunyoga keldi. Ular yuksak baholanib, adib O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Oybek nomidagi yillik mukofotiga loyiq deb topildi. Adib qissalarida [qishloq](#) hayotiga xos manzaralar qalamga olingan. Ularda oqko'ngil, halol, to'g'riso'z, mard o'zbek kishilarining takrorlanmas obrazlari yaratilgan. Bu qissalar tilining shoirona jozibadorligi, xarakterlarning yorqinligi, milliy ruhi bilan ajralib turadi.

Adibning 1994-yili Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofotiga loyiq topilgan asari "Otamdan qolgan dalalar" romani nafaqat adib ijodida, balki o'tgan asrning 90-yillar adabiyotida katta voqea bo'ldi. Roman T.Murodning talanti qirralarini adabiy jamoachilik va keng kitobxonlar ommasida oldida yana bir bor namoyish qildi. Unda butun umri bo'yi ketmon chopib, mustamlakka yurtda kosasi oqarmay kelgan o'zbek dehqonlarining umumlashgan obrazi Dehqonqul timsolida chizib beriladi. Asarda Chor Rossiyasining Turkistonga bostirib kelishi va uning oqibatlarini, Oktyabr Inqilobi nomi bilan tarixga kiritilgan davlat to'ntarishi, Sho'rolar davridagi turli qatag'onlar kabi ijtimoiy hayot bilan parallel ravishda o'zbeklarning maishiy turmushi, dehqonlar hayotining o'ziga xos jihatlari, milliy urf-odatlar ham o'ziga xos usulda badiiy kashf etildi.

Shundan so'ng T.Murod "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanini yozdi. Tog'ay Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" asari bosh qahramon – Botir Firqada biz ikki yolg'iz insonni ko'ramiz. Biri – hayotdagi ishonch va e'tiqodlari oxir-oqibat sarobga aylanganidan

yolg'izlanib qolgan bo'lsa, ikkinchisi – qalbi va vijdoniga qarshi ish qilayotganidan iztirob chekib yashayotgan yolg'iz inson. Uning ismi ham – jismi va ruhiga mos – Botir firqa, tabiatan botir va mavjud tuzumning firqasi. Asar voqealari davomida ba'zan unisi, gohida bunisi ustun kelib qolaveradi.

T.Murod mazkur asarlarining barchasida el-yurt keng xalq ommasi davrini ijtimoiy tiplar orqali ifoda qilib, davr qiyofasini badiiy dalillab bera oldi. Ulardan teran ma'no nozik psixologizm orqali o'sha davr ustidagi o'z ko'z-qarashlarini o'z fikrini, o'z so'zi bilan oshkor eta oldi. Ushbu asarlarining barchasining o'ziga xos yaratilish tarixi bor, adib ularni shunday xotirlaydi:

“Men o'rta maktabni bitirib shunday niyat etdim: o'ttiz-o'ttiz besh yoshlargacha uylanmayman oila qurmayman, biror idorada faqat tarixchilik uchun ishlayman. Men faqat bir maqsadni ko'zladim: faqat jahon adabiyotini o'qish. Faqat o'qish, o'qish, o'qish, qo'l qotib qolmasini uchun mayda hikoyalar mashq etib turish. Men shu niyat yo'lida imorat solmadim, mashina olmadim, mansab egallamadim, shon shuhrat qizg'anmadim.

Nihoyatda... nihoyatda sanoqli kunlarda “Yulduzlar mangu yonadi” nomli birinchi qissamni yaratdim.

Men bu qissam bilan g'animlarimga:

“Mana men kimman degan bo'ldim”.

Qissa elga manzur bo'ldi”.²

“Qisman mumtoz adabiyotimizdagi saj yo'lini, ko'proq xalq dostonlaridagi nasriy ifoda hikoya qilish yo'sinlarini eslatadigan, aslida faqat Tog'ay Murodgagina xos XX asr zamonaviy o'zbek tili yangi o'zbek nasri mahsuli bo'lmish bu xil badiiy matn adabiyotimizda tamomila yangi, noyob hodisa. Matndagi gaplarning tuzilishi tarzi, ohangi, so'z va jumalarning takrorlanishi xalq tilining rang-barang tovlanishi, nozik lutf, qochiriqlar, goh xazin kayfiyat goh tabassum uyg'otuvchi ifodalar, birgina jumla, birligida tanbeh orqali butun boylarga tatigulik voqei drama, ruhiy holat kechinmalarining jonli gavdalanirilishi – ularning barchasi yetuk she'riyat, dostonchilik tajribalarini yodga tushiradi”³. Ushbu fikrlarda ham T.Murod ijodining o'ziga xos mahorat mahsuli ekanligi alohida ta'kidlangan.

Tanqidchi R.Otayevning quyidagi mulohazalari adib haqidagi tasavvurlarimizni yanada boyitadi, chunki tanqidchi adabiyotimizga 70-80 yillarda kirib kelgan avlod haqida gapira turib ular orasida Tog'ay Murodni alohida ta'kidlab o'tgan: “... Tog'ay Murod qissalaridagi o'zbek xalqining psixologiyasi, xalq dostonlarining ruhiga chuqur kirib borish, milliy bo'yoqlarning yorqin ifodalanishi ... kabi hodisalar ancha keng va jiddiy mulohazalar uchun asos bo'la oladi”⁴. Yuqorida aytilganidek T.Muroda xalq

² Murod T. «Otamdan qolgan dalalar. –T.: 1994. –B. 264-265.

³ Karimov N. va boshqalar «XX asr o'zbek adabiyoti tarixi» –T.: 1999. 529 b.

⁴ Отаев Р. Дилрабо кўшиқлар айтилаверсин // Шарқ юлдузи. – 1984. – №2. – Б. 162-163.

dostonlarini juda yaxshi bilan va ularning ritmik ohangini, takrorlari va tasvirlarini o'zining beqiyos qissalari va romanlari orqali o'zbek adabiyotining ajralmas bir bo'lagiga aylantirib qo'ydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Жаҳон адабиёти”, 2016 йил, №12, 129-б.
2. Karimov N. va boshqalar «XX asr o'zbek adabiyoti tarixi» –T.: 1999. –544 b.
3. Maqsadqulov X. Termiz oqshomi gazetasi 2008-yil 10-son.
4. Murod T. «Otamdan qolgan dalalar. –T.: 1994. – 272 B.
5. Normatov U. Ijod sehri. –T.: “Sharq”, 2007. –352 b.
6. Отаев Р. Дилрабо кўшиқлар айтилаверсин // Шарқ юлдузи. – 1984. – №2. – Б. 162-163.
7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Navoiy universiteti, 2018. – 480 b.
8. Сафаров М. Айришох: (Қиссалар, ҳикоялар, эссе). –Тошкент: “Ўқитувчи” НМИУ, 2008. –288 б.
9. Сафаров М. Она тупроқ кўшиғи. –Т.: Ғафур Ғулом. 1988.